

Bayzakova Dilbar Fayziyevna
Jizzax politexnika instituti
(Jizzax,O‘zbekiston)

IQTISODIY O’SISH AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASHNING MUHIM OMILIDIR

Annotatsiya: **Ushbu maqolada** O‘zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar orqali iqtisodiyotning barqaror o‘sishi, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va aholi farovonligini ta’milanishi **bayon etilgan**. Bunda iqtisodiy o‘sishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlili, ya’ni qo’shilgan ulushlarning tarkibi hamda YaIMning o‘sishiga qo’shgan hissasini ko‘rib chiqilgan.

Kalit so’zlar: iqtisodiy o‘sish, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, bandlik, aholi daromadlari, aholi farovonligi

Bayzakova Dilbar
Fayziyevna

Jizzakh Polytechnical Institute
Jizzakh, Uzbekistan

ECONOMIC GROWTH IS AN IMPORTANT FACTOR OF PROVIDING THE WELFARE OF THE POPULATION

Annotation: This article describes the sustainable growth of economy, macroeconomic indicators and ensuring well-being of population through the economic reforms. Being carried out in Uzbekistan. An analysis of the factors affecting economic growth that is the structure of added shares and their contribution to the growth of the GDP was considered

Key words: economic growth, macroeconomic indicators, gross domestic products, employment, population income, well improved life standard of population

Jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa barcha muammolarni hal qilishning asosiy yo'li – bu milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy o'sishiga erishish hisoblanadi. Bunga uning o'sishiga ta'sir ko'rsatgan omillar tahlili, ya'ni qo'shilgan ulushlarning tarkibi hamda YaIMning o'sishiga qo'shgan hissasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlanmoqda, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlanmoqda, iqtisodiyot va uning ayrim sohalari o'rtasidagi mutanosiblik kuchaydi, bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirilib, rivojlantirilmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlanish maqsadida quyidagi jarayonlarning amalga oshirilishiga katta e'tibor qaratildi:

- keng ko'lamdagagi tizimli bozor isloqotlarini izchil amalga oshirish;
- xorijiy investitsiyalarni jalb qilish chora-tadbirlarini kuchaytirish;
- iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish;
- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash;
- eksportga ixtisoslashgan yangi tarmoq va korxonalarni barpo etish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama puxta o'ylangan siyosatni amalga oshirish.

Mamlakatimizda YaIMning nafaqat miqdoran o'sib borishi, balki uning tarkibiy tuzilmasining sifat jihatidan takomillashib borishi ham alohida ahamiyatga ega.

Bunga uning o'sishiga ta'sir ko'rsatgan omillar tahlili, ya'ni qo'shilgan ulushlarning tarkibi hamda YaIMning o'sishiga qo'shgan hissasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir

Jadvaldan ko'rindan, 2022 yildagi YaIMning tarkibida qo'shilgan ulushi jihatidan xizmat ko'rsatish sohalari (41,5%), sanoat (26,7%), qishloq, o'rmon va baliqchilik x o'jaligida (25,1%), qurilish (6,7%), tarmoqlari yetakchi o'rin tutmoqda.¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

**1-jadval Yalpi ichki mahsulotning o'sishiga ta'sir ko'rsatgan
omillar tahlili**

	Tarmoqlar	Qo'shilgan ulushlar tarkibi, %		YaIM ning o'sishiga qo'shgan hissasi, %	
		2021 yil	2022 yil	2021 yil	2022 yil
1.	Yalpi ichki mahsulot	100	100	107,4	105,7
2	Sanoat	27,3	26,7	2,2	1,3
3	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida	26,5	25,1 %	1.0	0,9 %
4	Qurilish	6,6	6,7	0,4	0,4
5	Xizmatlar:	39,6	41,5	3,5	3,2
	Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,8	7.0	0,8	0,6
	Tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,0	7,0	1,1	1,0
	Boshqa xizmat tarmoqlari	25,8	27,5	1,6	1,6

Ana shu maqsadlarga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar hamda modernizatsiyalash jarayonlari natijasida o'tgan yilda ham sanoat, qurilish, xizmatlar sohasi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida o'sish sur'atlarini ko'rishimiz mumkin. Shunisi diqqatga sazovorki, yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atini an'anaviy xom ashyo tarmoqlari hisobidan emas, jahon bozoridagi qulay kon'yunktura va ayrim xom ashyo turlari hamda materiallar narxining yuqoriligi hisobidan emas, balki birinchi navbatda raqobatga bardoshli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda zamonaviy xizmat ko'rsatish sohalarini jadal rivojlantirishni belgilab

beradigan jiddiy tarkibiy o‘zgarishlar va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga ta’minlanishi mumkin.

2-jadval. 2019-2023 yillarda aholi jon boshiga hisoblangan

yalpi ichki mahsulot

Nº	Yillar	Aholi jon boshiga YAIM (joriy narxlarda, ming s o‘m)	Aholi jon boshiga YAIMning o‘sish sur’atlari (o‘tgan yilga nisbatan % hisobida)
1	2019	15 863,8	104,0
2	2020	17 688,5	100,1
3	2021	21 149,2	105,3
4	2022	24 919,7	103,5
5	2023	29 300	117,0

Mamlakatimizda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o‘rin tutadigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag’batlantirish va qo’llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo’rayev T., Iqtisodiyot nazariyasi. . Darslik..-T.: «Fan va texnologiya»nashr, 2018.
2. Bayzakova D. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik..-J.: JizPI, 2023.
3. Bayzakova, D. (2021). THE IMPACT OF ENTREPRENEURSHIP AND INNOVATION ON THE ECONOMY. *Экономика и социум*, (12-1 (91)), 135-138.
4. Umirova, G.Sh. (2023). Yosh olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilarining onlayn ilmiy forumi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimini isloh qilishning yo‘llari, 37-38. TATUFF-EPAI.

5. Umirova, G. S. (2024). Tadbirkorlikni rivojlantirishda innovatsiyalarning hozirgi kundagi ahamiyati. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(3), 452-454.
6. Gulmira, U. (2023). Theoretical basis of management of the financial stability of the banking system. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(05), 126-130.
7. Bayzakova, D. F. (2024). O'zbekistonda tadbirkorlik ko'nikmalari va munosabatlarini rivojlantirish masalalari. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(4 SPECIAL), 43-48.
8. Bayzakova, D. F. (2024). O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun yaratilayotgan yangi imkoniyatlar. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(4 SPECIAL), 39-42.